SAYLOVBOY JUMAG‘ULOV ASARLARIDA FOYDALANILGAN FOLKLOR OBRAZLARI

Kudiyarova Rislixan Kadirbaevna – *filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*
kudyarova82@gmail.com
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ФОЛЬКЛОРНЫЕ ОБРАЗЫ, ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ САЙЛОВБОЯ ЖУМАГУЛОВА

Кудиярова Рислихан Кадирбаевна – *доктор философии по филологическим наукам*
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

FOLKLORE IMAGES USED IN THE WORKS OF SAYLOVBOY ZHUMAGULOV

Kudyarova Rislikhan Kadirbaevna – *Doctor of Philosophy in Philological Sciences*
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: yumor, folklor, motiv, g‘oya, obraz, konflikt.

Rezyume. Maqolada S.Jumag‘ulovning ijodidagi xalq og‘zaki ijodi va undagi yumor masalasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Qoraqalpoq adabiyotida Omirbek obrazi kuldurgi so‘z ustasi sifatida taniqli. Yozuvchi Omirbek obrazini yana da takomillashtirib, yozma adabiyotda uning obrazini yaratganligi haqida so‘z yuritiladi

Ключевые слова: юмор, фольклор, мотив, идея, образ, конфликт.

Резюме. В статье рассматривается проблема фольклора и юмора в творчестве С.Джумагулова. В каракалпакской литературе персонаж Омирбека известен как мастер смешного слова. Говорят, что писатель еще больше усовершенствовал образ Омирбека и создал его образ в письменной литературе.

Key words: humor, folklore, motif, idea, image, conflict.

Summary. The article focuses on the issue of folklore and humor in S. Jumag‘ulov's work. In Karakalpak literature, the character of Omirbek is known as a master of funny words. It is said that the writer further improved the image of Omirbek and created his image in written literature.

Kirish. Saylovboy Jumagulovning ijodi o‘zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Adib o‘z asarlari bilan xalqimiz qalbidan mustahkam o‘rin egallagan. Chunki uning asarlari badiiy jihatdan yuksak darajada yozilgan. Ularda turli badiiy tasvir vositalari, folklor obrazlari, folklor motivlari, ko‘chma obrazlar mohirona qo‘llanilgan. Qaysi shoir yoki yozuvchini olib qaramaylik, u folklor asarlari namunalaridan foydalanmay ijod qilmaydi. Chunki folklor asarlari badiiy adabiyotning tayanch vazifasini bajaradi. Shunday ekan, S.Jumag‘ulov ham o‘z asarlarida folklorik obraz hisoblangan O‘mirbek obrazini yanada to‘ldiradi va takomillashtiradi.

Asosiy qism. Saylovboy Jumag‘ulovning asarlarida folklorik obrazlar ko‘plab uchraydi. Biz bundan yozuvchining xalqimizning boy milliy merosi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi bilan yaqindan tanish ekanligini, uni yaxshi, mukammal bilishini anglaymiz. Biz, bu maqolamizda yozuvchining “Biletning yarmi kimda?” nomli kitobidagi folklor obrazi hisoblangan O‘mirbek laqqi haqida so‘z yuritmoqchimiz. O‘mirbek laqqi qoraqalpoq adabiyotida kulgili so‘zlarning notig‘i deb ta’rif keltiriladi. “O‘mirbek latifalarining bir siri, muallif kulgisi o‘sha o‘zi o‘ylagan voqea mazmunidan, konflikt xarakteridan voqealar oqimini keltirib chiqaradi. Uning topgan kulgisi voqeaning shiddatiga, turmushda uchraydigan xarakterlarga, hayot dialektikasiga hech qachon qarshi kelmaydi. Bu ba’zi odamlar bo‘yidagi yengil-yelpi xato-kamchiliklarni yo‘q qilishga, shu orqali odamlar bo‘yidagi yukni yengillatishga yordam beradi” [5:16]. O‘mirbek laqqi tarixda bo‘lgan odam. Uning notiqlik, uchirma so‘zlarini, kulgili gaplarini xalqimiz bugungi kunimizgacha o‘zlarining adabiy badiiy xazinasi sifatida terib, yig‘ib, unutmay otadan-bolaga o‘tkazib saqlab kelgan. Saylovboy Jumagulov ham O‘mirbek laqqi obrazini yanada chuqurroq ochib berish maqsadida avvalgi gazeta-jurnallar sahifalarida e’lon qilingan qisqa uchirma so‘zlarini, hazillarini O‘mirbek laqqi nomiga bog‘lab qayta ishlab chiqqan. Muallif O‘mirbek laqqini bola vaqti bilan ulg‘aygan paytidagi qiziqarli voqealarini kulgili so‘z sifatida olib qaragan.

S.Jumagulovning mazkur kitobiga kirgan “Ikki raqami oshib ketibdi-ya...” hazil so‘zini olib qaraylik: – “Qo‘zichog‘im, ana kelayotgan sakkizinchi avtobus emasmi? - debdi birovga O‘mirbek qarigan chog‘ida. – Yo‘q, ota. U o‘ninchi degan avtobus! – Voy, qolib ketgur-ey! - debdi O‘mirbek chol soqolini silab. – Ikki soni oshib ketibdi-da!”[4:23]. Bugungi kun turmushidan kelib chiqqan bu hazil so‘zning ma’nosiga e’tibor qaratsak, kichkina bolalarga sanashni o‘rgatgandek bo‘ladi. “Uzoq yashaydigan qushlar”: “O‘mirbekning o‘quvchi kunlari ekan. Bir kuni u o‘qiydigan sinfga tekshiruv kiribdi. O‘qituvchi bir payt sinf o‘quvchilariga: – Qani, kim aytadi? Eng ko‘p yashaydigan qushlar qaysilar? – deb o‘rtaga savol tashlabdi: Shunda oxirgi partada o‘tirgan O‘mirbek gapirishga ruxsat olibdi-da: – Eng ko‘p yashaydigan qushlar o‘lkashunoslik muzeyidagi qushlar! – deb javob beribdi”[4:15]. Bu olingan hazil so‘zimiz yengil kulgiga qurilgan. Yana O‘mirbekning shaxsiyatidagi bir xarakterli belgi shundan iborat, u o‘yiga, tiliga nima kelsa uni yashirib saqlab qolmagan. Bu ham laqqalardagi ajoyib, o‘ziga xos xususiyat belgilaridan biri. O‘mirbek o‘yi bilan qanday kulgili, hazil, qiziq gaplar aytilmasin uning zamirida katta xalqchil g‘oya yotadi. “Ómirbek anekdotları” deb atalgan kitobga kirgan mana bu misolni olib qaraylik: “O‘mirbek o‘g‘liga choy damlab berib turib: - Piyolani sindirib olma, – deb bir shapaloq uribdi. Buni ko‘rgan xotini: – Hoy, dadasi-ey, kosa singani yo‘q, ammo bolani nega urasan? – debdi. Shunda O‘mirbek: - Sening esing ketgan ayol ekan-san. Kosani sindirib olgandan keyin urishning nima hojati bor, – debdi” [2:24]. Ammo, S.Jumag‘ulovning to‘plamiga kirgan shu voqea bilan bog‘liq hazil so‘zida aksincha, xotini har kuni likopchalarni sindiraverar ekan. Unga qo‘shnisi uyingda sinmagan tarelka qoldimi? – deganda O‘mirbek: Faqat sinmagan ikkitasi qolgan, – deb javob beradi. U ham bo‘lsa ikkovining ovqat yeydigan tarelkasi

boʻlsa kerak. “Har oʻnta joʻjaga bitta oʻlgan joʻja” anekdotida esa, Oʻmirbek laqqining topqirligi koʻzga tashlanadi, chorasiz qolgan vaziyatdan chiqish kabi fazilatlari yengil kulgi bilan ochib beriladi. Masalan, “Oʻmirbek laqqi tovuq fermasiga ombor boshligʻi boʻlibdi. Bir kuni inkubatordan olib kelingan koʻp joʻjalar oʻlib, uning boʻyniga tushadigan boʻlibdi. U shulardan qutulish uchun darrov mana bu mazmundagi e’lon osibdi. “Oʻrtoqlar! Kimda kim joʻja olishni xohlasa ishdan keyin ombor boshligʻiga uchrashsin. Chetdan kelgan fuqarolarga 50 tadan, oʻzimizning xodimlarga esa 100 tadan joʻja sotiladi. Lekin, har oʻnta joʻjaga bitta oʻlgan joʻja qoʻshib sotiladi!” [4:20]. Bundan koʻrinib turganidek S.Jumagʻulov Oʻmirbek obrazidan foydalanib, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ham yuzaga chiqarganligining guvohi boʻlib oʻtiribmiz.

“Militsiyaxonaga boring!” hazil soʻzida qoraqalpoq xalqining milliy urf-odat an’anasi ham soʻz yuritilgan. Buni yozuvchi Oʻmirbek laqqi timsolida soʻz etib oʻtiradi. Masalan, “Oʻmirbek laqqi biroz yoshlarga borib qolsa ham qattiq sodda ekan. Yangi yil arafasida oʻrtancha qizi qochib ketibdi. Oʻsha kuni qizi qochib ketibdi. Oʻsha kuni uyiga ikki odam kirib kelib: Mana, bizning bolalarimiz oʻgʻirlik qilib qoʻyibdi. Shuni aytaylik deb kelgan edik! – debdi. Shunda sodda Oʻmirbek: – Oʻgʻirlik qilsa, militsiyaxonaga borib qoʻying! – deb javob bergan ekan [4:22]. Misolga olingan bu hazil soʻzda Oʻmirbek obrazi orqali jamiyatimizda urf-odat va an’analardan bexabar odamlarning ham qiyofasini berishga intilgan. Shuning bilan birga, u oq koʻngil sodda odamning obrazini yaratgan. Har bir yomon odamning qiligʻiga kulsang, unga rohatlanib kulma, rozi boʻlganingdan kul, gʻazabli kulguning oʻzi ham qaygʻu. Bunday kulgiga har doim oʻzing ham tushmagin, har bir yaxshi odamning yaxshilik topganiga kulsang, uning yaxshilikni yaxshiligidan topganligini oʻrnak qilib kul. Har bir namuna olishning oʻzi ham vaqti bilan toʻxtaydi. Koʻp kulgining hammasini ham maqtaganim yoʻq, uning ichida bir kulgi bor - xudo yaratgan oʻrni bilan ichdan, koʻkrakdan kelmaydi, qoʻldan yasab, sirti bilan bet-ogʻziga tuzatib, kulgini bezatib, goʻzallik uchun kuladigan boʻyama kulgi”, – degan ulugʻ Abay Qoʻnonboy oʻgʻli [1:100,101]. Oʻsha aytganidek, Oʻmirbek latifalarining ayrimlarini oʻzimizga namuna qilib olsak, ayrimlaridan oʻzimiz uchun toʻgʻri xulosa chiqarishimiz kerak. Uning har bir anektodi chuqur xalqchil gʻoya bilan yoʻgʻrilgan.

“Nechta tovuq soʻygansan?” hazil soʻzidan misol olaylik: “Yangi yil arafasida Oʻmirbek laqqi turmushga chiqib ketgan qizining uyiga aylanib boribdi. Kuyov bolasi borib turgan xasis ekan, hovlisidagi shuncha tovugʻidan birini soʻymay doʻkondan bir kilogramm faqat tovuqning boʻyinlarini olib qovuribdi-da, qaynatasining oldiga qoʻyibdi. Boʻyin qovurdoqni turtib yeb oʻtirgan Oʻmirbek bir vaqtlari: – Bolam-ey, juda buzilib qolibsan-ku. Nechta tovuq soʻygansan? – degan vaqtda kuyov bolasi uyalganidan oʻzini qoʻyarga joy topolmay qolibdi” [4:24]. Olingan bu misolda yozuvchi Oʻmirbek obrazini qayta ishlagan, uni aqlli, hamma narsaga tushunadigan, kuyoviga ham oʻrinli soʻz ayta olgani bilan boshqa kulgili soʻzlardan ajralib turadi. Darhaqiqat, Oʻmirbek laqqi haqidagi kulgili soʻzlar xalqchil gʻoya bilan sugʻorilgan. Undagi har bir soʻzda chuqur ma’no yashiringan. U har qanday vaziyatdan xohlagancha soʻz topib ayta oladigan iste’dod egasi boʻlgan. Mana, bolasi, xotini, Oʻmirbek orasidagi konfliktda ham iliq tuygʻu oʻtirib, uncha qattiq ketmay, bolasiga bir shapaloq urish bilan boshqalarga oʻgit-nasihat berib turganligini koʻrishimiz mumkin.

Oʻmirbek laqqi tarixda boʻlgan odam. Uning notiqlik, uchirma soʻzlarini, kulgili gaplarini xalqimiz bugungi kunimizgacha oʻzlarining adabiy badiiy xazinasi sifatida terib, yigʻib, unutmay otadan-bolaga oʻtkazib saqlab kelgan. Olimlar Q.Maqsetov, N.Kamalov, Q.Mambetnazarovlar nashrga tayyorlagan ”Qaraqalpaq xalıq legendaları hám anekdotları” degan kitobda: “Oʻmirbek XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan odam. Uni koʻrgan odamlar ham hozirgacha uchraydi. Chimboy tumanidagi Lenin nomidagi koʻchada 27-uyda yashovchi Genjegul degan qariya 20 yoshlik vaqtida Oʻmirbekni koʻrgan. Bu vaqtda Oʻmirbek qarib kasal boʻlib yurgan vaqti boʻlsa kerak. Bir necha marta Genjegul qariya Oʻmirbekning koʻnglini soʻrab borgan:

- Ota tetikmisan? - deb soʻraganda:

- Hey bolalarim! Otangning tepkisi tayyor-tayyor boʻlib turibdi, – deb javob bergan. U oʻzining gapning oʻrni kelsa kim boʻlsa ham qaytarmaydigan fe’lini qarigan vaqtida ham qoʻygan yoʻq deydi, Genjegul oʻz soʻzida. Hozir bu odam 82 yoshda. Shu tumanning "Oktyabrning 40 yilligidagi sovxozining 4-brigadasida turuvchi Qorabon degan 68 yoshli chol oʻzining Oʻmirbekni bir necha marta koʻrganligini aytadi" [6:93]. Shu ma’lumotlarga tayanib, Oʻmirbek laqqi haqiqatdan ham Chimboy shahrida yashagan va umr kechirgan, deb ayta olamiz. S.Jumagʻulovning toʻplamiga kirgan "Oʻzi ham bir suyak qoʻshib" latifasida Oʻmirbek laqqining boshqalarda uchramaydigan odati koʻzga tashlanadi. Odamlar suyak goʻsht olishni istamasa, Oʻmirbek boʻlsa qassobdan oʻzi ham suyak qoʻshib oʻlchab berishini soʻraydi.

"Oʻmirbek changʻakka kelibdi-da, qassobga pulini tutqazib:

- Menga oʻzimga yaxshilab ikki kilogramm goʻsht oʻlchab ber. Keyin yana alohida ikki kilogramm goʻsht oʻlchab, unga iloji boricha ayamay suyak sol! – debdi.

- Hoy, nega? - deb hayron boʻlibdi qassob.

- Men u uydan kuyib turibman. Kun ora uyga telefon jiringlatib, bizning uyga ikki kilogramm goʻsht olib kel deydi-da turadi.

- Tushunarli, qancha suyak boʻlsa ham solaman. U qoʻshningizning uyi edimi?

- Yoʻq, qaynotamning uyi! – debdi Oʻmirbek tarozidagi goʻshtga oʻzi ham bir suyakni qoʻshib.

Bu satrlarda Oʻmirbekning gaplariga hayron qolasan. Bu yerda ham Oʻmirbek qassobning suyak solmay oʻlchamasligini biladi, shuning uchun suyakning barchasini qaynotasining uyiga soldirdi, oʻzinikiga esa, goʻshtli joyidan soldirtirib oldi. Endi qoraqalpoq folklorida berilgan anekdotga nazar solamiz [7:25]. Masalan:

"Bir kuni Oʻmirbek qassobdan goʻsht olishga borib, qassobga:

- Bir qadoq goʻsht oʻlcha, – debdi.

Qassob qarab-qarab turib, faqat boldirning suyaklari bilan kallasini, boʻynining goʻshtlarini solib:

- Mana, ortiqcha boʻlsa sizga boʻlsin, oling, – debdi.

- Yana ozgina ichak-qorin topib soling, bugun shoʻrva ichish niyatimizning kelishmayotgani boʻlsa kerak, – debdi Oʻmirbek.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda bunday uchirma soʻzlar Oʻmirbek latifalarining asosini tashkil etadi. Sinchiklab qarab tursang, Oʻmirbekning aralashmagan, koʻrmagan,

sezmagan turmush muammolarining bir tugunini ham ko‘rmaysiz. U barcha kasblar bo‘yicha oilaviy muammolar, bola tarbiyasi, insonparvarlik, to‘y-marosim, o‘zi yashagan zamondagi kasblar, mutaxassisliklar bo‘yicha xatolar, kamchiliklar, muvaffaqiyatsizliklarni yengil kulgi bilan tilga oladi. N.G.Chernichevskiyning so‘zi bilan aytadigan bo‘lsak: “Har bir yumor - kulgili va g‘amgin bo‘ladi,” – deb yozgan edi [3:190]. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek O‘mirbek latifalarida ham bu fikr tasdiqlanib turganligini ko‘ramiz. Uning folklorik obraz sifatida tanilgan O‘mirbek obrazi yozuvchi tomonidan qayta ishlangan va uni qayta yaratganligini ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Абай. Еки томдық шығармалар жыйнағы. II Том. –Алматы: «Жазыўшы», 1986.
2. Өмирбектиң анекдотлары. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1990.
3. Чернышевский Н.Г. полн. Собр. Соч. том 11. 1990.
4. Жумағулов С. Билеттиң жартысы кимде? – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1995.
5. Пахратдинов Ю. Өмирбек лаққы ҳәм юмор-сатира мәселесине. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1992.
6. Өмирбектиң анекдотлары. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1990.
7. Жумагулов. С. Билеттиң жартысы кимде? – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1995.